



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th April, 2025

HUDUDDAGI SANOAT KORXONALARINING EKSPORT FAOLIYATI SAMARADORLIGINI STATISTIK TAHLILI

Begimqulov Mansurbek Nurmatovich

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi huzuridagi

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Sanoat korxonalarining eksport salohiyatini oshirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omillardan biridir. Eksport hajmini oshirish orqali korxonalar o'z mahsulotlarini xalqaro bozorga olib chiqib, daromadlarini ko'paytirishlari va raqobatbardoshligini oshirishlari mumkin.

Bundan tashqari ma'lumot o'rniga quydagilarni aytishimiz mumkin, yengil sanoat — xilma-xil xom-ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlari ichki tizimga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmui. Yengil sanoatda xom-ashyoga ham dastlabki ishlov berish, ham tayyor mahsulot ichki tizimda amalga oshiriladi. yengil sanoat da paxta, ipak, zigir, kanop, jun tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun'iy tolalar, sun'iy charm xom-ashyo sifatida foydalaniladi. Uning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'ncilik, mo'ynado'zlik, poyabzal sanoatlari hisoblanadi. Yengil sanoat mahsulotlari, shuningdek, mebelsozlik, aviatsiya, avtomobil, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda ishlatiladi.

Og'ir sanoat — ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari guruhi. Og'ir sanoat undirma sanoat tarmoqlarining barchasini va ishlov beruvchi sanoatning bir qismini o'z ichiga oladi. Unga elektroenergetika, yoqilg'i sanoati, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo, neft kimyosi, yog'ochsozlik, qog'oz-sellyuloza, qurilish materiallari sanoati va boshqa kiradi. Og'ir sanoat mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi, xalq xo'jaligini kengaytirilgan ishlab chiqarish, texnika bilan qurollantirish, mamlakat mudofaa qudratini yuksaltirish, xalq farovonligini o'stirishning negizi hisoblanadi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th April, 2025

Agar biz butun tarixiy davr uchun ijtimoiy ishlab chiqarishni ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishining quyidagi bosqichlarida mehnat taqsimotining uch turini ajratish mumkin:

Mehnat taqsimotining birinchi bosqichi - iqtisodiyotning yirik tarmoqlari: qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqalarning shakllanishi.

Mehnat taqsimotining ikkinchi bosqichida iqtisodiyotning yirik tarmoqlaridan ixtisoslashgan tarmoqlar shakllandi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tarmoqlarning ixtisoslashuv darajasi bilan ajralib turadi, bu esa, o'z navbatida, ularni turli-xil sanoat majmualariga guruhlash imkonini beradi.

Mehnat taqsimotining uchinchi bosqichi individual korxona darajasida sodir bo'ladi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi mahsulotlarning yaratilishi, ishlab chiqarish texnologiyalari va korxonalarning moddiy-texnik bazasining rivojlanishi ta'siri ostida yangi sanoat va tarmoqlarning paydo bo'lishi uchun keyingi shart-sharoitlar paydo bo'ladi.

Ishlab chiqaradigan sanoat - yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, o'z ichiga oladi.

Sanoat korxonalari uchun eksport faqatgina mahsulotni xorijga sotish emas, balki ularning uzoq muddatli rivojlanishi va barqarorligini ta'minlovchi strategik yo'nalishdir. Quyida eksportning sanoat korxonalari ta'siri va uning ahamiyati bayon etiladi:

1. Moliyaviy barqarorlik va daromad oshishi-eksport yangi bozorlarni ochish orqali savdo hajmini oshiradi va daromadni ko'paytiradi va mahsulot xalqaro bozorga chiqishi tufayli valyuta tushumi oshadi, bu esa mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, ichki bozordagi talab pasaygan taqdirda ham eksport tufayli korxona barqaror daromad manbaiga ega bo'ladi.
2. Raqobatbardoshlikni oshirish-xalqaro bozorga chiqish uchun sanoat korxonalari zamonaviy texnologiyalar va sifat standartlarini joriy qiladi va mahsulot xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi uchun innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalarni qo'llash majburiyati yuzaga keladi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th April, 2025

3. Bozorga qaramlikni kamaytirish-eksport qilingan mahsulot turli bozorlarda sotilgani uchun sanoat korxonalari ichki bozorning inqirozlaridan kamroq ta'sirlanadi va turli davlatlarga eksport qilish tijorat xavf-xatarlarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

4. Ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sish-Eksport hajmining oshishi ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Hududiy sanoat korxonalarining eksport faoliyati iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lsa-da, u turli muammolar bilan bog'liq. Mahsulot sifati, logistika, raqobatbardoshlik va xalqaro talablar eksportning samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardir.

Bundan tashqari, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash dasturlarini amalga oshirilishi, respublika sanoatining rivojlanishiga imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, sanoatning yanada barqaror rivojlanishi uchun quyidagilar zarur:

- Ilg'or mahalliy texnologiyalarni ishlab chiqish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga mahsulotlarnig raqobatbardoshligini oshirish;
- tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirishda mahalliyashtirish darajasini to'xtatib turuvchi kamchiliklarni bartaraf etish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga to'sqinlik qiluvchi zarur tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar importini qisqartirish;
- kichik biznes sub'ektlarining ishlab chiqarish faoliyatini har taraflama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

Shuningdek, Sanoat tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, respublika sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zamin yaratdi.¹

¹ Khasanova G.D., The role of the state in the formulation of innovation strategy in industrial enterprises. Nauchno-metodicheskiy jurnal "Academy". Rossiyskiy impakt-faktor: 0,19. Universitet Notr-Dam (SSHA). № 4 (55). Aprel 2020. S.36-37.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th April, 2025

Xulosa qilib aytganda, hududiy sanoat eksportining samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarish quvvatlarini innovatsion texnologiyalar bilan jihozlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va marketing strategiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirish, jahon bozori talablariga javob beruvchi eksportbob mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish yo‘li bilan mamlakat eksport tarkibini sifat va son jihatdan o‘zgartirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va xorijga sotishni rag‘batlantirishga qaratilgan milliy eksport siyosatini amalga oshirish hozirgi kunning asosiy vazifasi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khasanova G.D., Toshev F.Z. O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirish tendensiyalari (Buxoro viloyati misolida). Nauchnyy jurnal “Internauka”. № 14 (96). CHast 2. Moskva. Aprel, 2019. S.73-77.
2. Khasanova G.D., Tairova M.M., Quدراتov A.D. Government Support for Formation of Innovative Strategy in Industrial Enterprises. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 08, 2020. ISSN:1475-7192. Rages: 5416- 5422
3. Khasanova G.D., The role of the state in the formulation of innovation strategy in industrial enterprises. Nauchno-metodicheskiy jurnal “Academy”. Rossiyskiy impakt-faktor: 0,19. Universitet Notr-Dam (SSHA). № 4 (55). Aprel 2020. S.36-37.